

2022-yil - Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili

Sayt test rejimida ishlamoqda

21 Yan 2022

09:59:01 | (+05:00)

O'z Y'a Pyc En Kz Tj

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН

ПРАВДА ВОСТОКА

€ 12295.64 so'm | ₺ 141.54 so'm | \$ 10835.07 so'm



Qidirish



Siyosat | Iqtisodiyot | Jamiyat | Fan va ta'lim | Madaniyat | Turizm | Sport | Dunyoda | Media | Fikr

Prezident qaroridan qanot yoygan orzular

> Fikr | 20 Yanvar 2022 | 55

O'zbek xalqining faxru iftixori hisoblangan osmon ostidagi muzey shahar, ko'hna va hamisha navqiron Samarqandning go'zalligi shu qadarki, xalqimiz asrlar osha uni «Sayqali ro'yi zamin ast» («Yer yuzining sayqali, ko'rki») deya madh etib kelgan. Manbalarda keltirilishicha, arab lashkarboshisi Muslim ibn Qutayba Samarqandning jamoliga maftun bo'lib, lashkari bilan kelgan donishmanddan uni vasf etishni so'rabdi, u: «Samarqandning rangi osmonga monand, qasrlari esa osmondagi charaqlagan yulduzlar, daryolari misli Somon yo'lideki!» deya ta'riflagan ekan.



Bu go'zal shahar me'moriy obidalarini bilangina emas, balki intellektual salohiyati bilan ham Markaziy Osiyoning eng ko'zga ko'ringan ta'lim va ma'rifat markazlaridan hisoblanadi. *O'n beshinchi asrda - Amir Temur saltanati*

So'nggi yangiliklar



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida karantin qoidalariga qat'iy rioya qilinishi ma'lum qildi.

Bugun kunduz kuni O'zbekistonda havo o'zgarib turadi

Barcha OTMlarda 24-yanvardan boshlab bir oy davomida ta'lim masofaviy (onlayn) shaklda olib boriladi.

24-yanvardan boshlab maktablar bir oy davomida "Onlayn" faoliyat olib boradi

Xususiy lashtirish borasidagi ishlar tanqidiy tahlil qilindi

Samarqandda terroristik tashkilotning virtual jamoati a'zolariga hukm o'qildi



Yanvar 2022

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
27	28	29	30	31	1	2

asos solgan ikkinchi *Renessans davrida* Mirzo **Ulug'bek** (1394-1449) xuddi buyuk bobosi Amir Temur kabi Samarqandga davrining yirik olimlarini to'plab, ulardan madrasalarda mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni talab etgan edi. O'zi ham talabalarga dars o'tishda boshqa ustozlarga o'rnak bo'lib, yoshlarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatish uchun rasadxonada mashg'ulotlar o'tkazgan edi. Davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev ham shunday qutlug' ilmiy-ma'rifiy an'analarni munosib davom ettirib, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilishga katta mas'uliyat bilan yondashmoqdalar. Davlat rahbarimizning haqli ravishda uqtirishlaricha, "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi". Prezidentimizning shunday ezgu maqsadga qaratilgan dono siyosatlariga ko'ra, Oliy ta'lim tizimi infrastrukturasi zamon talablariga, xususan, raqamli iqtisodiyot va umuman moliyaviy talablarga muvofiq tubdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ko'plab oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Oliy ta'limdagi islohotlar xalqaro maydonda ham mamlakatimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. QS World University Rankings EECA, ya'ni Rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reyting natijalariga Respublikamizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari reytingida o'sishga erishganini ko'rish mumkin.

O'qitishning kredit-modul tizimiga o'tilishi munosabati bilan aksariyat oliy ta'lim muassasalarida ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi tashkil qilindi. Ushbu bo'lim faoliyati xalqaro reytinglarda yuqori o'rinda turgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati va tajribalarini, kredit-modul tizimining ishlash mexanizmini o'rganish, ushbu jarayon monitoringini tashkil etishga qaratilmoqda.

Yoshlarga oliy ta'lim eshiklari baralla ochib qo'yildi. Barchaga oliy ma'lumotni kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida olishga sharoit yaratildi. Ta'lim tizimiga ta'limni boshqarish tizimlarining o'zaro elektron integratsiyasi, ma'lumotlarning elektron bazalari, elektron hujjat almashinuvi kabilar faol tatbiq etildi. Prezidentimizning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, oliy ta'lim bosqichida xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash ishlari jadal yo'lga qo'yilmoqda. Mehnat staji, ish tajribasiga ega bo'lgan fuqarolar o'zlari ishlayotgan korxonada tavsiyasi bilan suhbat asosida oliy o'quv yurtiga kirib o'qishmoqda. Bu borada "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar muhim dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi ta'minlangani, professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 barobarga oshirilgani, oliy ta'lim tizimida ko'plab xorijiy oliy o'quv yurtlari va filiallarining faoliyat olib borayotgani — so'nggi yillardagi oliy ta'lim islohotlarining muhim natijalaridir. Xorijda ta'lim berayotgan yoki xorijda ta'lim olib O'zbekistonda o'qituvchilik faoliyatini yuritayotganlarni oliy o'quv yurtlariga jalb qilish jarayonlari davom etmoqda.

Kuni kecha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ham oliy ta'limni rivojlantirish sari bosilgan salmoqli odim deb hisoblash mumkin.

Ushbu qarorga ko'ra, Samarqand davlat universitetiga xalqimizning ulug' farzandi, marhum Sharof Rashidovning nomi berildi. Sharof Rashidovning o'tgan asrning ikkinchi yarmida yurtimizda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga, ta'lim-tarbiya, san'at va adabiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasini barchamiz yaxshi bilamiz. Shunday nufuzli oliy dargohga, uchinchi renessansni amalga oshiradigan bunyodkor yoshlar ilm oladigan universitetga u kishining nomi berilishi bilan xalqimiz uzoq yillar kutgan yana bir ezgu orzu ro'yobga chiqdi. Albatta, ushbu muhim hujjatda universitet faoliyatini takomillashtirish, o'qitishning kredit-modul tizimini joriy qilish, universitet ilmiy va o'quv salohiyatini oshirishga qaratilgan o'ta muhim yo'nalishlar belgilab berilganligi ham e'tiborga loyiqdir.

Endilikda Samarqand davlat universitetida ilmiy-pedagogik kadrlar, elektronika, raqamli elektronika, robototexnika, elektrotexnika, yangi materiallar texnologiyasi kabi zamonaviy sohalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallagan kadrlar tayyorlash maqsadida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarning amalga oshirilishi, bunda tegishli sohalarini rivojlanish istiqbollarinin nazarda tutilishi, universitetda transformatsiya ofisining joriy etilishi, oliy ta'lim jarayoniga masofaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalarning samarali tatbiq etilishi, Muhandislik instituti talabalarining malakaviy amaliyotlari sanoat korxonalarida tashkil etilishi, ish beruvchilarning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kengashining tashkil etilishi, umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyaning amalga oshishi haqiqatan juda quvonchli hol. Qarorda, shuningdek, universitetning oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash borasidagi xalqaro reytingini oshirish, bitiruvchilarning kasbiy darajasini jahon intellektual bozorida tan olinishiga erishish hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalarning qo'yilganligi ham O'zbekistonda oliy ta'limni zamon talablari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. Unga ko'ra, universitet akademik mobillikka erishish uchun har bir yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha xorijiy OTMLar bilan talabalar va o'qituvchilar almashinuvini (Student, Academic and Administrative Staff Exchange) kengaytiradi.

Ma'lumki, oliy ta'lim yuksak saviyali, yuqori kompetensiyaga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirib beruvchi muhim ta'lim bosqichi hisoblanib, Oliy ta'limning zamon talablariga mutanosib bo'lishi mustaqil O'zbekistonimizning tenglar ichra teng bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy gullab-yashnashiga omil bo'ladi. Uchinchi renessansning poydevorini yuqori saviyali, o'z kasbining mahoratli egalari qo'ya oladilar.

E'tirof etish kerakki, hozirga qadar oliy ta'limga bu qadar katta imkoniyatlar va yuksak e'tibor berilmagan edi. Davlat rahbarimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'limda uzoq maqsadlarni nazarda tutgan dono siyosatlarini tufayli O'zbekiston oliy ta'lim dargohlarini modernizatsiyalashga tomon juda katta qadamlar qo'yilmoqda.

Ishonamizki, tez orada Samarqand davlat universiteti xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida avval birinchi mingtalik, so'ng esa ilk besh yuztaliklar ro'yxatiga kiradi hamda o'zi yetishtirgan kadrlar bilan O'zbekiston iqtisodiyoti, sanoati va madaniyatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

X.Ibragimov,

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti direktori, p.f.d., professor

 Nashr etmoq



Munosabat